YANGI MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASI SHAROITIDA SIYOSIY TIZIM LEGITIMLIGINI MUSTAHKAMLASHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Moxira Zoirova

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik kafedrasi

tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida kechayotgan yangi integratsiya jarayonlari sharoitida siyosiy tizim legitimligini mustahkamlashning zamonaviy texnologiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy legitimlikni ta’minlashning nazariy asoslari ko‘rib chiqilib, mintaqaviy integratsiyaning siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlari ochib beriladi. Muallif tomonidan institutsional islohotlar, tashqi siyosatdagi ochiqlik, “yumshoq kuch” vositalari hamda raqamli boshqaruv mexanizmlari siyosiy legitimlikni mustahkamlovchi asosiy omillar sifatida asoslanadi. Maqola yakunida Markaziy Osiyo integratsiyasi siyosiy tizimlar legitimligini mustahkamlovchi muhim mexanizm ekanligi xulosalanadi.

Kalit so‘zlar: *siyosiy legitimlik, Markaziy Osiyo, integratsiya, modernizatsiya, siyosiy texnologiyalar, yumshoq kuch, raqamli boshqaruv.*

Abstract. This article analyzes modern technologies for strengthening the legitimacy of the political system in the context of new integration processes taking place in the Central Asian region. The study examines the theoretical foundations of ensuring political legitimacy and reveals the political-economic and cultural-humanitarian aspects of regional integration. The author argues that institutional reforms, openness in foreign policy, “soft power” tools, and digital governance mechanisms are the main factors strengthening political legitimacy. At the end of the article, it is concluded that Central Asian integration is an important mechanism for

strengthening the legitimacy of political systems.

Keywords: *political legitimacy, Central Asia, integration, modernization, political technologies, soft power, digital governance*

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida mintaqaviy integratsiya jarayonlari davlatlar rivojlanishining muhim omiliga aylanmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida so‘nggi yillarda kuzatilayotgan siyosiy yaqinlashuv “yangi Markaziy Osiyo integratsiyasi” fenomenini yuzaga keltirdi. Mazkur jarayonlar nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki siyosiy tizimlar barqarorligi va legitimligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy siyosatshunoslikda legitimlik faqat qonuniylik emas, balki fuqarolarning faol roziligi va ishonchi bilan belgilanadi.

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasi sharoitida siyosiy legitimlikni mustahkamlashning zamonaviy texnologiyalari tahlil qilinadi. Tahlil uchta asosiy yo‘nalish – institutsional-siyosiy modernizatsiya, raqamli boshqaruv va xizmatlar transformatsiyasi hamda mintaqaviy integratsiya vositasida legitimlikni mustahkamlash – doirasida olib boriladi.

Institutsional-siyosiy modernizatsiya

So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar va tashabbuslar Markaziy Osiyo davlatlarining bugungi kun talabiga javob beradigan integratsiyaning qanchalik dolzarb masala ekanligini inobatga olgan holda amalga oshirilmoqda. Bunda albatta davlatlarning nafaqat yakka holdagi legitimligi, balki Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiya sifatidagi qonuniyligini mustahkamlash ham hozirgi zamon talabiga aylanmoqda. Shu jihatdan ham, siyosiy legitimlikni ta’minlashda davlat boshqaruvi institutlarini modernizatsiya qilish muhim o‘rin tutadi. Bu borada Markaziy Osiyodagi davlatlardan biri Qozog‘iston konstitutsiyaviy islohotlar asosida “superprezidentlik”dan “inson huquqlariga yo‘naltirilgan” tizimga tomon qadami muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, joriy yil 15 martda Qozog‘istonda

o‘tkazilgan konstitutsiyaviy referendum mintaqadagi eng keng ko‘lamli siyosiy islohotlardan biri bo‘ldi. Referendum natijasida yangi Konstitutsiya loyihasi qabul qilinib, mamlakatning siyosiy tizimi tubdan o‘zgartirildi. Yangi Konstitutsiyaning asosiy o‘zgarishlari qatorida parlamentni ikki palatali tizimdan bir palatali tizimga o‘tkazish, vitse-prezident lavozimini tiklash, raqamli muhitda inson huquqlarini mustahkamlash, davlat va dinning ajratilishi hamda ta’limning dunyoviylik prinsipini mustahkamlash kabilar mavjud. Ozarbayjondagi Strategik siyosat va xalqaro munosabatlar tahlili markazi (CASPIA) direktori Orxon Yolchuyev ta’kidlaganidek, “mamlakat o‘z siyosiy arxitekturasini qayta ko‘rib chiqishning haqiqiy yangi bosqichiga kirmoqda”.[1] Darhaqiqat, konstitutsiyaviy islohotlar mamlakatda ichki tizimni yangilash va hozirgi zamon talablariga javob beruvchi texnologiyalardan foydalanish uchun zamin yaratadi.

Qirg‘iziston tajribasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, davlat konstitutsiyasining yangi tahririda (2021-yilda qabul qilingan) Ombudsman instituti mustaqil davlat organi sifatida belgilangan bo‘lib, uning vakolatlari jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini tiklash, inson huquqlari va erkinliklarining holatini monitoring qilish, davlat va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini nazorat qilish va qonun loyihalarini ekspertizadan o‘tkazishni o‘z ichiga oladi.[2] Shu bilan birga, 2025-yil 9-iyunda Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov parlament saylovlarida majoritar vakillik tizimiga o‘tish to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qonunni imzoladi.[3] Qirg‘iziston misolida konstitutsiyaviy islohotlar asosan saylov tizimining samaradorligini oshirish va siyosiy korrupsiyaga qarshi kurash maqsadlariga qaratilgan. Qonunning e’lon qilingan maqsadlari qatorida “saylov jarayonlarini takomillashtirish, siyosiy korrupsiyaga qarshi kurashish va saylangan vakillarga jamoatchilik ishonchini oshirish” ko‘rsatilgan. Biroq, tahlilchilarning fikricha, bu o‘zgarishlar aslida vertikal hokimiyatni mustahkamlash va prezidentga sodiq parlamentni shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qilmoqda.[4]

O‘zbekistonda ham qator islohotlar amalga oshirilib, 2023-yil 30-aprelda O‘zbekistonda o‘tkazilgan referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiya natijasida moddalar soni 128 tadan 155 taga, normalar soni esa 275 tadan 434 taga oshdi.[5] Ushbu konstitutsiyaviy islohot “xalq Konstitutsiyasi” deb e’lon qilinib, unda “yangilanishning tashabbuskori va tom ma’nodagi muallifi xalqimiz bo‘lgan” deb ta’kidlangan. Islohot “Inson qadr-qimmati uchun” va “Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyillariga asoslangan. Xalqaro ekspertlarning fikricha, bu o‘zgarishlar Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan “inson huquqlari, erkinliklari va sha’nini munosib ta’minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar mutlaq qo‘llab-quvvatlanayotganini namoyish etdi”.[6]

Tojikiston misolida konstitutsiyaviy o‘zgarishlar nisbatan kichik va texnik xususiyatga ega. Asosiy e’tibor sud tizimini takomillashtirish va qonunchilikni inson huquqlari talablariga moslashtirishga qaratilgan. Ijtimoiy tarmoqlardagi “layk”lar uchun javobgarlikni bekor qilish esa muhim siyosiy signal bo‘lib, rejimning o‘z qat’iy pozitsiyasini yumshatish va xalqaro hamjamiyat oldida “ochiqlik” imidjini yaratishga qaratilgan deya izohlash mumkin.[7]

Mintaqaning yana bir davlati bo‘lmish Turkmaniston ham 2023-yil yanvar oyida parlament tomonidan Xalq Kengashi (Halk Maslahaty) ni yana mamlakatning eng yuqori siyosiy organi darajasiga ko‘taruvchi konstitutsiyaviy o‘zgarishlar qabul qilindi. O‘zgarishlar, shuningdek, Gurbanguli Berdimuhamedovga “Turkman xalqining Milliy lideri” konstitutsiyaviy maqomini berdi, bu unga ichki va tashqi siyosatni shakllantirish bo‘yicha keng vakolatlar taqdim etdi. Freedom House hisobotiga ko‘ra, ushbu “islohot” “hukmron oilaning keng siyosiy va iqtisodiy hokimiyatini himoya qilish va ularning merosiy hukmronligini kelgusi avlodlar uchun mustahkamlash uchun sug‘urta polisi” sifatida baholangan. Qonun hukmron oilani jinoiy javobgarlikdan himoya qiladi, ularning aktivlari va mulklarini davlat tomonidan musodara qilinishidan saqlaydi va milliy xavfsizlik xizmatlariga ularni himoya qilish

majburiyatini yuklaydi. Turkmaniston misoli institutsional-siyosiy modernizatsiyaning eng paradoksal ko‘rinishidir. “Konstitutsiyaviy islohot” degan nom ostida aslida hokimiyatning yanada markazlashuvi va merosiy boshqaruv tizimining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi sodir bo‘lmoqda.[8] Bu “islohot” demokratik qadriyatlar va cheklovlar mexanizmlarining butunlay yo‘qligini namoyish etadi. Biroq, bu o‘zgarishlar Turkmanistonning Xitoy va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan iqtisodiy va siyosiy integratsiyasiga to‘sqinlik qilmaydi, aksincha, “barqarorlik” kafolati sifatida taqdim etilmoqda.

Raqamli boshqaruv va xizmatlar transformatsiyasi

Markaziy Osiyo davlatlarida raqamli boshqaruv islohotlari bir vaqtning o‘zida uchta strategik maqsadga xizmat qilmoqda:

1. Xizmat ko‘rsatish legitimligini oshirish – mahalliy darajada davlat xizmatlarining sifatini, tezligini va qulayligini yaxshilash orqali fuqarolarning hukumatga ishonchini kuchaytirish.

2. Hokimiyatning periferiyadagi mavjudligini mustahkamlash – mintaqaviy integratsiya (xususan, Xitoyning “Raqamli ipak yo‘li” va “Bir makon, bir yo‘l” tashabbuslari) jarayonida chekka hududlarda davlat nazoratini kuchaytirish.

3. “Barqarorlik va taraqqiyot” obrazini yaratish – mintaqaviy hamkorlik va xalqaro investitsiyalar uchun qulay siyosiy muhitni namoyish etish.

Quyida besh mamlakatdagi mahalliy boshqaruv islohotlari, ularning texnologik vositalari va mintaqaviy integratsiya kontekstida legitimlikka ta’siri tahlil qilinadi.

O‘zbekistonda ushbu jarayon mahalla tizimini kuchaytirish orqali davlat bir tomondan fuqarolarga eng yaqin darajada xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirishga (xizmat ko‘rsatish legitimligi), ikkinchi tomondan ijtimoiy nazorat tarmog‘ini mustahkamlashga (xavfsizlik legitimligi) intilmoqda. Bu jihatdan kelib chiqib, mahallaning ikki tomonlama tabiati – ham jamoatchilik asosidagi o‘zini o‘zi boshqarish organi, ham davlat siyosatining “uzatuvchi kamari” sifatida – uni ayniqsa

samarali legitimlik texnologiyasiga aylantiradi. Xususan, 2025-yil 8 oktabrdagi Prezident qaroriga muvofiq, 2026-yil mart oyidan boshlab mahallalar, tumanlar va shaharlarni “Yangi O‘zbekiston qiyofasida” namunaviylashtirish ishlari boshlangan. Buning uchun 7 trillion so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirilmoqda. Bunga ko‘ra 33 ta tumanda natijaga asoslangan boshqaruv, elektron baholash va kadrlar rotatsiyasi tizimi joriy etiladi.[9]

Umuman qilib aytganda, “namunaviy hudud” konsepsiyasini ikki tomonlama legitimlik texnologiyasi sifatida ko‘rish mumkin. Bir tomondan, bu mahalliy hokimiyatlarning samaradorligini oshirish va korrupsiyani kamaytirish orqali xizmat ko‘rsatish legitimligini kuchaytiradi. Ikkinchi tomondan, hududlarni “namunaviy” va “namunaviy bo‘lmagan” toifalarga ajratish raqobat muhitini yaratadi va hokimiyatga “yutuqlarni” namoyish qilish imkonini beradi – bu esa “natijalarga asoslangan legitimlik” (output legitimacy)ning klassik namunasini ifodalaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston mahalliy boshqaruv islohotlari xalqaro tashkilotlar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanmoqda. Yevropa Ittifoqi va BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyiha doirasida mahalliy boshqaruv tizimini “javob beruvchanlik, hisobdorlik va mintaqaviy va mahalliy institutlarning yaxshiroq ishlashini ta’minlash” maqsadida transformatsiya qilish ko‘zda tutilgan. Xususan, loyiha qishloq joylarida davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va raqamli transformatsiyani joriy etishga qaratilgan. Bu esa mahalliy darajadagi legitimlikni xalqaro hamjamiyat oldida ham namoyish etish imkonini beradi.

Qozog‘iston esa mahalliy boshqaruv islohotlari asosan saylov tizimini demokratlashtirish va raqamli transformatsiya yo‘nalishlarida rivojlanmoqda. Qozog‘istonda mahalliy hokimlar (akimlar)ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov tizimi joriy etilgan. Parlament Senati tahlil markazi ma’lumotlariga ko‘ra, akimlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylash amaliyoti “fuqarolarning boshqaruv jarayonlariga jamoatchilik ishtirokini kuchaytiradi”.[10]

Biroq, tahlilchilarning ta’kidlashicha, ushbu islohot “ikki tomonlama legitimlik va markaz bilan mahalliy hokimiyat o‘rtasidagi muvozanat” muammosini ham keltirib chiqaradi. Saylangan akimlar bir tomondan saylovchilar oldida, ikkinchi tomondan markaziy hokimiyat oldida javobgardir – bu esa amalda markaziy hokimiyatning mahalliy boshqaruvga ta’sirini pasaytirmaydi.

Qirg‘izistonni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, mintaqa ichida mahalliy boshqaruv sohasidagi o‘ziga xos islohotlarni amalga oshirayotganligini tahlil qilish mumkin. Jamladan, 2025 yil mart oyida Qirg‘izistonda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha 20 yillik davlat dasturi qabul qilingan.[11] Uning o‘ziga xosligi shundaki, dastur har besh yilda majburiy yangilanib turiladi. Bu esa albatta yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish, masalaga davr talabidan kelib chiqqan holda yondashish imkonini beradi.

Umuman qilib aytganda, uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi hukumatning “kelajakka qaragan” va “barqaror” imidjini yaratadi. Qisqa muddatli siyosiy o‘zgarishlardan farqli o‘laroq, 20 yillik dastur siyosiy tizimning “institutsional mustahkamligi”ni namoyish etadi – bu esa mintaqaviy integratsiya sharoitida xorijiy investorlar oldida muhim legitimlik signalidir.

Yana bir muhim jihatni ta’kidlash kerakki, 2025-yil 12-dekabrda Toshkentda birinchi “Markaziy Osiyoda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish” mintaqaviy forumining o‘tkazilishi mahalliy boshqaruv islohotlarining mintaqaviy integratsiya bilan bog‘lanishining eng muhim namunasi bo‘ldi.[12] Forum mintaqadagi barcha besh davlatdan davlat organlari vakillari, munitsipal uyushmalar, xalqaro tashkilotlar, tahlil markazlari va ekspertlarni birlashtirdi. Forumning asosiy maqsadlari mahalliy boshqaruv sohasida mintaqaviy tajriba almashish, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlarini kengaytirish, hamda, mintaqaviy hamkorlik va chegaralararo aloqalarni rivojlantirishdan iborat bo‘ldi. Mazkur forum mahalliy boshqaruv islohotlarini mintaqaviy darajada legitimlashtirish texnologiyasining ajoyib

namunasi deb izohlash mumkin. Bu Markaziy Osiyo davlatlarining birgalikdagi raqamli va institutsional standartlar ishlab chiqishiga xizmat qilishi mumkin.

Mintaqaviy integratsiya

Siyosiy legitimlik nafaqat ichki omillar, balki mintaqaviy va xalqaro muhit bilan ham chambarchas bog‘liq. 2025-yil 1-mayda Dushanbeda bo‘lib o‘tgan “Jahon o‘zgarishlari sharoitida Markaziy Osiyo mamlakatlari integratsiyasi: holat va istiqbollar” mintaqaviy konferensiyasi mintaqaviy integratsiyaning hozirgi holatini baholashga bag‘ishlanganligi ham qanchalik muhimligini aks ettiradi.[13] Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasi so‘nggi yillarda keskin jadallashdi. 2025-yil 16-noyabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining VII maslahat uchrashuvi mintaqaviy hamkorlikning muhim bosqichi bo‘ldi. Uchrashuvda Ozarbayjon “Markaziy Osiyo + Ozarbayjon” formati doirasida hamkorlikka qabul qilindi. Jumladan, Qozog‘iston Prezidenti Toqayev bu uchrashuvda mintaqada savdo to‘siqlarini bartaraf etish, transchegaraviy transport-tranzit tizimlarini kuchaytirish va sun’iy intellektdan oqilona foydalanishni rivojlantirish zarurligini ta’kidladi.[14] Demak, bu kabi mintaqaviy diplomatik aloqalar orqali integratsion tarzda siyosiy tizimni legitimlashtirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qayd etishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, Xitoy bilan hamkorlik mintaqadagi siyosiy legitimlikni mustahkamlovchi asosiy tashqi omillardan biriga aylanmoqda. 2025-yil 16-18 iyunda Astanada bo‘lib o‘tgan II Xitoy – Markaziy Osiyo sammiti mintaqaviy hamkorlikning eng yorqin namunasidir. Sammitning eng muhim natijalari qatorida “Abadiy do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma” imzolanishi, hamda 2025-2026 yillarni “Xitoy – Markaziy Osiyo sifatli hamkorlik yillari” deb e’lon qilinishi muhim o‘rin tutadi. Sammitda oltita asosiy hamkorlik yo‘nalishi belgilangan: savdo-iqtisodiy hamkorlik, sanoat va investitsiyalar, o‘zaro bog‘liqlik va transport-

kommunikatsiyalar, yashil minerallar, qishloq xo‘jaligi modernizatsiyasi, insonlar o‘rtasidagi aloqalar.[15,16]

Mintaqaviy integratsiyaning siyosiy legitimlikka ta’siri ikki tomonlamadir. Bir tomondan, tashqi hamkorlik mintaqaviy tinchlik va barqarorlikni ta’minlaydi, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi va mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi. Ikkinchi tomondan, texnologik qaramlik mamlakatlarning suverenitetiga tahdid solishi mumkin.

Mintaqa integratsiyasi sharoitida legitimlikni mustahkamlashning asosiy paradoksi sifatida 2025-yilda nashr etilgan “Texnologik nazorat rejim xarakterlari sifatida: Markaziy Osiyoda qayta-avtoritarlashuv” maqolasida ta’kidlanishicha, O‘rta Osiyodagi texnologik nazorat tizimlari mavjud avtoritar rejimlarning o‘z hokimiyatini mustahkamlashda yangi vositaga aylanib qolmoqda.[17] Bu ham ma’lum ma’noda yuqorida ta’kidlanganidek, Markaziy Osiyoda joriy etilayotgan sun’iy intellekt va raqamli kuzatuv tizimlari go‘yoki davlat xizmatlarini yaxshilash va korrupsiyaga qarshi kurash uchun taqdim etilayotgan bo‘lsa-da, aslida ular mavjud avtoritar rejimlarga muxolifatni kuzatish, noroziliklarni bostirish va hokimiyatni yanada mustahkamlash imkonini beruvchi yangi vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu tariqa, texnologiyalar bir tomondan xalqning hukumatga ishonchini (xizmatlar orqali) oshirsa, ikkinchi tomondan aynan o‘sha vositalar orqali fuqarolik erkinliklarini toraytirib, legitimlikka putur yetkazadi – bu esa “texnologik nazorat”ning asosiy paradoksidir.

Bundan tashqari, mintaqaviy integratsiya siyosiy legitimlikni mustahkamlashda ikki tomonli rol o‘ynaydi. Bir tomondan, Xitoy - Markaziy Osiyo hamkorligi mintaqaviy tinchlik va barqarorlikni ta’minlaydi, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Ikkinchi tomondan, Rossiya va Xitoy kabi katta kuchlarning texnologik ta’siri mintaqa mamlakatlarining raqamli suverenitetiga tahdid solishi mumkin. Markaziy Osiyo davlatlari Xitoy va Rossiyaga texnologik qaramlikni kamaytirish uchun esa o‘zaro raqamli infratuzilma (masalan, mintaqaviy ma’lumotlar serverlari, yagona

kiberxavfsizlik standarti) va alternativ texnologik hamkorliklar (Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Turkiya bilan) rivojlantirishi mumkin. Shuningdek, mintaqada mustaqil kuzatuv qo‘mitasi tuzilsa va u texnologik tizimlarning inson huquqlariga rioya qilishini nazorat qilish va fuqarolarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish vazifalarini bajarsa, yuqoridagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidni oldini olish mumkin bo‘ladi.

Xulosa

Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasi sharoitida siyosiy tizim legitimligini mustahkamlash uchta asosiy texnologiyani o‘z ichiga oladi:

1. Institutsional-siyosiy modernizatsiya – konstitutsiyaviy islohotlar, hokimiyatning tarkibiy o‘zgarishi va fuqarolar huquqlarini kengaytirish orqali legitimlikni mustahkamlash. Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi bir qator konstitutsiyaviy islohotlar bunga yorqin namunadir.

2. Raqamli boshqaruv texnologiyalari – elektron hukumat, sun’iy intellekt, ma’lumotlar boshqaruvi va aqlli shahar konsepsiyalari orqali xizmatlar sifatini oshirish va byurokratik to‘siqlarni kamaytirish. 2026-yilda hukumatni raqamlashtirish va sun’iy intellektga oid qonunlarni belgilab berilishi mintaqa davlalari strategiyalarining aniq ko‘rsatkichidir.

3. Mintaqaviy integratsiya – Xitoy, Rossiya, AQSh, Turkiya, Germaniya va boshqa katta kuchlar bilan muvozanatlashgan diplomatiya orqali iqtisodiy va siyosiy legitimlikni mustahkamlash. “Markaziy Osiyo +” formatlari va “Xitoy – Markaziy Osiyo” hamkorlik mexanizmi buning asosiy vositalaridir.

Biroq, ushbu texnologiyalarning samaradorligi mamlakatning ichki siyosiy konteksti, fuqarolarning ishonch darajasi va mintaqaviy geosiyosiy muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy legitimlikni mustahkamlashda raqamli transformatsiya, institutsional islohotlar va mintaqaviy

integratsiyaning sintezini amalga oshirib, yangi – “Markaziy Osiyo modeli”ni shakllantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beysembaev, S. Tokayev’s New Constitution Is a Bet on Stability–At Freedom’s Expense. Carnegie Endowment for International Peace. – 2026. (https://carnegieendowment.org/russia-eurasia/politika/2026/03/kazakhstan-constitution-change-reaction)
2. Qirg‘iziston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 11.04.2021. (https://www.gov.kg/ky/p/constitution)
3. https://interfax.com/newsroom/top-stories/111947/
4. Ibragimova, G. What’s Behind Electoral Reform in Kyrgyzstan? Carnegie Politika, Carnegie Endowment for International Peace. – 28.11.2025. (https://carnegieendowment.org/russia-eurasia/politika/2025/11/kyrgyzstan-parliamentary-reform)
5. https://qashqadaryo.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=71413
6. https://constitution.uz/oz/pages/political_events
7. https://en.avesta.tj/2025/10/02/the-president-of-the-republic-of-tajikistan-signed-a-number-of-laws/
8. https://freedomhouse.org/country/turkmenistan/nations-transit/2024
9. https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/15/exemplary-city/
10. https://www.undp.org/kazakhstan/press-releases/undp-and-government-kazakhstan-hold-strategic-session-akims-digital-cabinet
11. https://open.kg/en/news/economy/76909-zavody-klastery-dorogi-kak-budut-razvivat-regiony-kr-v-2026-godu.html
12. https://dpi.kg/en/press-room/news/full/2207.html
13. “Jahon o‘zgarishlari sharoitida Markaziy Osiyo mamlakatlari integratsiyasi: holat

va istiqbollar” mintaqaviy konferensiyasi materiallari. – 01.05.2025. Tojikiston Strategik tadqiqotlar markazi, Konrad Adenauer jamg‘armasi. (https://mts.tj)

14. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining VII maslahat uchrashuvining Yakuniy bayonnomasi. – 15-16.11.2025. Toshkent, O‘zbekiston. (https://www.president.uz)
15. Abadiy do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma”. –16-18.06.2025. (https://www.fmprc.gov.cn)
16. II Xitoy – Markaziy Osiyo sammitining Yakuniy deklaratsiyasi (Ostona deklaratsiyasi). –16-18.06.2025. Ostona, Qozog‘iston. (https://www.fmprc.gov.cn)
17. Baer, J., & Dall’agnola, J. Technology-enabled surveillance as a regime characteristic: re-authoritarianization in Central Asia. Swiss Political Science. – 2025. – 377–388. (https://doi.org/10.1111/spsr.70006)